



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

Xushvaqto'v Farrux Romanovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti, katta o'qtuvchisi., tel 90 33 600 99

Farrux_finance@mail.ru

Nurqosimova Surayyo Xoljigit qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti, o'qtuvchisi.,

tel: 93-571-66-76

surayyonurqosimova98@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu tezida O'zbekistonda Davlat xaridlari tizimi samaradorligini oshirishda mavjud muammolar o'rganilgan. Bu borada hozirda olib borilayotgan islohotlar va xorijiy mamlakat tajribalaridan foydalanish istiqbollari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar:

xarid, korporativ buyurtmachi, davlat buyurtmachilari.

Kirish.

Davlat xaridlari – bu davlat ehtiyojlari uchun tovar va xizmatlarni davlat byudjeti hisobiga to'liq yoki qisman xarid qilish demakdir. Ularning muhimligi shundaki, davlat xaridlari davlat sektorini, shu jumladan maktab, kasalxonalar va boshqa muassasalarni barcha zarur tovarlar, yuqori sifatli ishlar hamda xizmatlar bilan zarur miqdorda va maqbul narxlarda ta'minlaydi.

Bugungi kunda davlat xaridlari sohasida kuzatilayotgan muammo va kamchiliklar ko'plab noqulaylik va e'tirozlarni keltirib chiqarayotgani hech kimga sir emas. Masalan, xaridlarning aksariyat qismi ularning ochiqqligini va shaffoqligini ta'minlovchi axborot-kommunikatsiya tizimidan foydalanmagan holda amalga oshirilishi, xarid qilish tartib-taomillarini, shartnoma majburiyatlarini monitoring va nazorat qilish tizimi bugungi kun talablariga javob bermayotganligi, shu bilan birga davlat xaridlari jarayonidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish tizimining samaradorlik ko'rsatkichi pastligi hamda davlat buyurtmachilari tomonidan davlat xaridlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etmaslik xolatlari ham mavjud. Bu esa o'z navbatida davlat buyurtmachilari tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishda vaqtdan yutqazishiga, shuningdek investitsiya dasturlari doirasidagi loyihalarning kechikishiga olib kelmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Hukumati davlat xaridlari tizimini

takomillashtirish masalalariga katta e'tibor qaratmoqda, masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 dekabrda PQ-4544-sonli "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil 24 iyuldagi PQ-5197-sonli "Elektron onlayn-auksionni o'tkazish tartibini soddalashtirish, uning shaffofligini oshirish hamda ishtirokchilar huquqlarining ishonchli himoyasini kafolatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi 276-sonli "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qarori va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularga muvofiq davlat xaridlari bo'yicha Respublika komissiyasi tuzildi. Ushbu sohadagi normativ-huquqiy bazani yaxshilashga doir takliflarni ishlab chiqish ushbu Respublika komissiyasining vazifalari doirasiga kiradi.

Davlat xaridlari bo'yicha Respublika komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat¹: davlat xaridlarining ochiq va shaffof o'tkazilishini, davlat buyurtmachilari tomonidan qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish; tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat xaridining maqsadga muvofiqligini, davlat buyurtmachilari tomonidan boshlang'ich narxlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq shakllantirilishini monitoring qilish;

korporativ buyurtmachilar tomonidan davlat kafolatisiz tashqi qarz mablag'lari jalb qilinishini nazorat qilish;

davlat buyurtmachilarining qiymati 1 million AQSh dollaridan yuqori bo'lgan shartnomalarini, shu jumladan import shartnomalarini xatlovdan o'tkazish, ularni maqbullashtirish choralari ko'rish;

korporativ buyurtmachilar tomonidan tashqi qarz mablag'larining jalb qilinishi, ushbu mablag'lar hisobidan loyihalarning moliyalashtirilishi va amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatish, shuningdek, ularning samaradorligi va natijadorligini tahlil qilib borish hamda tashqi qarz hajmlarini maqbullashtirish bo'yicha choralarni ko'rish;

davlat buyurtmachilari rahbarlarining davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish bo'yicha hisobotlarini muhokama qilish.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda g'aznachilik tizimidan foydalanishni kengaytirish borasida aloxida mexanizm ishlab chiqilishi va amalda qo'llanilishi, kichik biznes korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimning bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishga erishiladi.

«O'zbekistonda byudjet tizimini isloh qilish» loyihasi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri davlat xaridlari tizimini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga ko'mak berishdan iboratdir. Loyihaning ushbu yo'nalishdagi faoliyati 2025 yilga qadar Davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirish strategiyasini, «Davlat xaridlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda xaridlarning asosiy tartib-taomillariga doir qonun osti hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishga, shuningdek metodik materiallarni tayyorlashga qaratilgan.

Bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish va ulardan mintaqamiz sharoitiga to'g'ri keladiganlaridan foydalanish amaliyotini yo'lga qo'ishimiz lozim. Xorijiy mamlakatlarda byudjet mablag'lari sarflanishining samarali yo'lga qo'yilganligi ularning sezilarli amaliy tajribasi bilan ifodalanadi. Byudjet mablag'larining asosiy xarajatlari turkumida davlat xaridlari o'ziga xos o'ringa ega. AQSH, Avstraliya, Kanada, Argentina, Xitoy, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarning davlat ehtiyojlarini qondirish uchun tovar, ish, xizmatlar xaridi tashkilotlarining o'ziga xos tajribasi bizda qiziqish uyg'otadi. Quyida bir necha xorijiy mamlakatlarning davlat xaridi jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

Xorijiy mamlakatlarda davlat xaridining o'ziga xos xususiyatlari²

¹ Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha respublika komissiyasi to'g'risidagi Nizom. O'zR. Prezidentining "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 2021-yil 2 iyul, 5171-son. 3-ilova.

Mamlakat nomi	Davlat xaridi jarayonidagi o'ziga xosligi	Xarid jarayoni
AQSH	Uzoq tarixiy shakllanish bosqichlari-ga ega va dunyodagi eng samarali Davlat xaridi tizimlaridan biridir	5 bosqichda: rejalashtirish, buyurtma joylashtirish, saralash va shartnomalar tuzish, nazorat, natijalarni baholash
Buyuk Britaniya	G'aznachilik - xarajatlarni tasdiqlash va xarid jarayonini boshqaruvini amalga oshiruvchi vakolatli organ	3 bosqichda: rejalashtirish, buyurtmalarni joylashtirish hamda ijro
Avstraliya	"Samarali mablag'lar sarfi" avstraliyacha metodi ishlab chiqilgan. Ularda shartnomalar ijrosi nazorati zaif	Taklif qilingan mahsulot qiymati va yakuniy qiymatni solishtirish yo'li bilan xarid konsepsiyasi tashkil etilgan
Kanada	"Optimal qiymat" - narx, texnik foyda va tovar sifati birikuvidan iborat konsepsiya ishlab chiqilgan	Hukumat davlat xaridi nazorati o'tkazilishida muhim organ
Belgiya	Davlat qonunchiligida xarid faoliyatining barcha bosqichlaridagi xarajatlar nazoratiga alohida e'tibor beriladi	5 bosqichda: xarid to'g'risida qaror qabul qilinadi, XS hisob-kitobi, tahlil, hujjatlar ko'rib chiqilishi, to'lov nazorati
Xitoy	Qat'iy reglamentlar o'rnatilgan, xorij kapitalining milliy iqtisodiyotdagi ishtiroki tartibga olingan	Milliy eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmi bu davlat xarididir, milliy ishlab chiqarishning tashqi resurs va kapital manbalariga tobeligini texnologik va moliyaviy qisqartirish imkonini beruvchi instrument deb qaraladi

Yuqoridagi xorijiy mamlakatlarning davlat xaridi sohasidagi o'ziga xos xususiyatlari o'sha mamlakatdagi xarid jarayonining sodir bo'lishida o'z aksini topadi. Davlat xaridi bevosita byudjet mablag'lari sarfi bilan amalga oshirilgan ekan, uning samaradorligi ta'minlanishiga katta ahamiyat qaratilishi zarur bo'ladi. AQSH uzoq tarixiy shakllanish bosqichlarini bosib o'tgan va hozirda dunyodagi eng samarali xarid tizimini yo'lga qo'ya olgan rivojlangan davlatdir. O'zbekiston davlat xaridi jarayoni ham jadallik bilan rivojlanib, takomillashib bormoqda. Fikrimizcha, bizda davlat xaridi jarayonida xuddi Belgiyadagidek, xarid faoliyatining barcha bosqichlaridagi xarajatlar nazoratiga alohida e'tibor beriladigan bo'lsa hamda AQSH xarid bosqichlari kabi 5 bosqichli tizimni yo'lga qo'yadigan bo'lsak, ya'ni rejalashtirish, buyurtma joylashtirish, saralash va shartnomalar tuzish, nazorat, natijalarni baholash izchil ketma-ketligini amaliyotga tatbiq eta olsak, O'zbekistonda davlat xaridi jarayonidagi mavjud muammolarni bartaraf eta olgan bo'lardik. Kanada tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya ya'ni, "Optimal qiymat" - narx, texnik foyda va tovar sifati birikuvi konsepsiyasini bizdagi "Davlat xaridi" tizimiga tadbiq etish narxlar monitoringi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsata oladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 05.12.2019 yil, PQ-4544
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektron onlayn-auksionni o'tkazish tartibini soddalashtirish, uning shaffofligini oshirish hamda ishtirokchilar huquqlarining ishonchli himoyasini kafolatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 24.07.2021 yil, PQ-5197
3. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining "Davlat buyurtmachilari tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat xaridlarida uzluksizlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 30.07.2021 yil, 473-son

² Qiyosiy jadval "Вестник науки и образование" №16(52). Часть.1 2018 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi qarori, 20.05.2022 yil, 276-son
5. “Вестник науки и образование” №16(52). Часть.1 2018 г